

QASHQADARYO VILOYATIDA IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYIN UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDAGI KADRLAR MUAMMOSI

Ne`matov Shavkatjon Boymurod o`g`li

Qarshi Davlat Texnika universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası

mustaqil tadqiqotchisi.

e.pochta : shavkatjonnematov400@gmail.com

Annotatsiya. *Mazkur maqola Qashqadaryo viloyatida Ikkinchi jahon urushi davridan so`ng umumiy o`rta ta`lim tizimidagi kadrlar tizimidagi muammolar, hamda ta`lim sohasiga munosabat uning ahvoliga bag`ishlanadi.*

Абстрактный. *В данной статье рассматриваются проблемы кадрового обеспечения системы общего среднего образования Кашкадарьинской области после Второй мировой войны, а также отношение к сфере образования.*

Abstract. *This article is devoted to the problems of the personnel system in the general secondary education system in the Kashkadarya region after World War II, as well as the attitude towards the education sector.*

**Kalit so`zlar:** *O`rta ta`lim tizimidagi kadrlar tizimidagi muammolar, xalq maorifi, qarshi pedagogiga instituti, siyosiy ongni oshirish uchun tashkil etilgan to`g`araklar, o`rta maktab, boshlang`ich maktab, yetti yillik maktab.*

Respublika xalq ta`limi urushdan keyingi yillarda bir qator jiddiy qiyinchiliklarni yengib o`tishiga to`g`ri keldi. Urush yillarida ta`lim tizimiga e`tibor berilmadi. Ana shu holat urushdan keyingi dastlabki yillarda ham davom etdi. Urush davrida o`qishga jalb etilmagan maktab yoshidagi bolalarni urushdan keyingi dastlabki yillarda ta`lim tizimiga tortish juda muhim masala bo`lib qoldi. Bundan tashqari, urush yillarida ta`lim sifati ham juda pasayib ketgan bo`lib, 20-yillardagi qoloq uslublarda olib borilardi. Bu esa o`quvchilarni o`qishdan bezdirar, o`qishni tashlash va sinfda qolish hollari ko`paymoqda edi. Masalan, 1945/46 o`quv yilida O`zbekiston maktablaridagi o`quvchilar soni rejadagi 1 mln. 10 ming kishi o`rniga 823 ming kishidan iborat bo`ldi¹¹. Sinfda qolgan o`quvchilar soni ham ko`p bo`lib, 1946 yilda u barcha o`quvchilarning 37% ini tashkil etardi. Ayniqsa qiz bolalarni maktabga jalb qilish, ularni o`qishni tugatguncha ushlab turish alohida muammo sifatida ko`ndalang bo`lib turardi. O`qituvchi xodimlar masalasi urushdan keyingi yillardagi eng jiddiy muammolardan biri edi. Chunki malakali o`qituvchilar asosan urushga yuborilgan, ularning ko`pchiligi halok bo`lgandi. Xususan, 1947 yilda

¹¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; . Т.: «Шарқ», 2000. - 571 б.

respublika bo'yicha 4 ming o'qituvchi yetishmasdi. Tuman xalq maorifi bo'limlari mudirlari, maktab direktorlari va ta'lim bo'yicha direktor muovirlarning 60% dan ko'prog'i tegishli ma'lumotga ega emasdi. 1950 yilda 7125 maktab o'qituvchilarga muhtojlik sezardi

Ikkinchi jahon urushidan so'ng mamlakatda xalq ta'limi sohasini qayta tiklashga e'tibor qaratildi. 1945-1946 o'quv yillarida respublikada 4483 ta maktab bo'lgan bo'lsa, 1950-yilda ularning soni 5005 taga yetdi¹². O'quvchilarning soni ham 912040 nafardan 1 265 485 nafarga ko'paydi. Malakali muallimlar tayyorlashga e'tibor qaratilib, 1950-yilda maktablarda 48237 muallim faoliyat yurita boshladi.

Shunga qaramay viloyat maktablarini malakali kadrlar bilan ta'minlab turishda Qarshi pedagogika bilim yurti katta o'rin tutdi. Bu yerda 1944-1957-yillar ichida rus tili va adabiyoti, o'zbek tili va adabiyoti, tarix, fizika va matematika fanlari bo'yicha 1127 ta mutaxassis o'qituvchi yetishtirib berildi¹³.

1958-yilning 24 dekabrda SSSR Oliy Kengashi "Maktabning turmush bilan aloqasini mustahkamlash hamda xalq maorifi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida"¹⁴ muhim qaror qabul qildi. Ushbu qaror asosida maktablarda o'quv-tarbiya ishlari qayta ko'rib chiqilishi ko'zda tutilgan bo'lib, Qashqadaryo oblasti "Pravda 25" sovxozida ham uning ijrosi "ta'minlanayotgan" edi. Sovxozda mavjud 3 ta maktabda tahsil olayotgan va xuddiki harbiy martaba kabi komsomol, pioner va oktyabryat deb nom olgan o'quvchilar darsdan so'ng kolxoz yumushlariga ko'maklashishga chiqarildi. Makulatura, metallom to'pladilar, ayrim paxtachilik, g'allachilik va chorvachilik brigadalarini o'zlarining otaliqlariga oldilar¹⁵. Albatta, bu paxta dalalarida yig'im-terim boshlangunga qadar kuzatiladigan jarayon edi. Yig'im-terim boshlangach esa, nafaqat katta sinf o'quvchilari, balki boshlang'ich sinflar ham umuman maktabga borishmagan. Ular to'liq jismoniy mehnatga jalb etilgan. Bu vaqtda o'quvchining uy vazifasini tayyorlashi, qo'shimcha darslarga qatnashi, darsdan tashqari o'qishlarda ishtirok etishi haqida gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Bu holatlarning barchasi xalqni ilmsizlik iskanjasida qoldirdi, ma'naviyatini, ongini tanazzulga yetakladi. O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957 yil 1 oktyabrdagi sessiyasida «O'zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida»gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan dastlabki qadam bo'ldi. Yangi qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lib qoldi. Biroq bu bilan respublika

¹² Рахматова, Д. Ж XX аср 50-80-йилларида Қашқадарё вилоятида амалга оширилган пахта яккахокимлиги сиёсати ва унинг оқибатлари. Монография.-Т.: "Лессон Пресс" нашриёти, 2023-й.-б.84

¹³ Эгамбердиев Х. Ўзбекистонда тўртинчи ва бешинчи беш йилликлар даврида халқ муорифининг юксалиши (Қашқадарё мисолида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1972 -№2.-В.37

¹⁴ Закон "Об укреплении связи школы с жизнью и о дальнейшем развитии системы народного образования в СССР" // <https://www.prilib.ru/history/619837>

¹⁵ Хидиров П. Шахрисабз районидаги "Правда 25 йиллиги" колхоз тарихи Тошкент ЎЗСР колхоз ва совхозлари тарихи жамоатчилик институти, 1979-Б. 67.

maktablarida mavjud bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab haqiqiy hayotdan ajralib qoldi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmasdi. Shuning uchun ham 1959 yil martda O'zbekiston Oliy Soveti «Maktabning hayot bilan aloqasini mustahkamlash va respublikada xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida» yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi. 60-yillar O'zbekistonda «rivojlangan sotsializm» bosqichi deb e'lon qilindi. Jamiyat mamlakat rahbariyatidan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda jiddiy sifat o'zgarishlarni amalga oshirishni kutmoqda edi. Biroq, amalda unday bo'lmadi. Lekin buning o'rniga siyosiy rahbariyat aqidaparastlikni, ommaviy-siyosiy ishlarni avj oldirdi. Xalq ta'lim tizimi ham ana shu «girdobga» tashlandi.

70-80-yillarda O'zbekiston maktablarida ahvol sifat jihatidan o'zgarmay qolaverdi. Maktablar jahon tajribalaridan, zamonaviy texnika va o'qitish vositalaridan foydalanmadi. Ularning moddiy-texnika bazasi yaxshilanmadi. To'g'ri, bu yillarda maktablar, o'quvchilar, o'qituvchilar soni yildan-yilga ortib bordi, son ko'rsatkichlari kishini hayratga solar darajasida ortdi. Masalan, O'zbekistonda 1945-46 o'quv yilida jami 4525 maktab bo'lib, ularda qariyb 998 ming o'quvchi o'qigan bo'lsa, 1970-71 o'quv yilida respublikaning umumiy ta'lim maktablari soni 7072 taga, ularning o'quvchilari esa 3 mln. 164 ming kishiga yetdi. Biroq, ularning sifat darajasi (ayniqsa, qishloq maktablari) ancha past edi. Chunki, ko'klarga ko'tarib maqtalgan «rivojlangan sotsializm» bosqichi ham 20-30-yillarda shakllangan «qoldiq prinsipi»ning ijtimoiy oqibatlarini yo'qota olmagan edi. 1970-1980-yillarda xalq ta'limi uchun davlat tomonidan ajratilgan mablag' 11% dan 8% ga kamayib ketdi. Respublikaning barcha viloyatlaridagi maktablarning 20-60% i zarur o'quv qurollari, asbob-anjomlar bilan jihozlanmay qolaverdi, 50% dan ortiq maktablarda issiq ovqat bufetlari tashkil etilmadi. Kuni uzaytirilgan guruhlar ishi ayniqsa o'lda jo'lda qoldi. 70-80-yillarda 1-8-sinf o'quvchilarining atigi 8-9% ini bunday guruhlarga jalb etilgan edi, xolos¹⁶. Rasmiy hokimiyat soxta proletar baynalmilalligini amalda kuchaytirish maqsadida maktablarda rus tili va adabiyotini kengroq o'qitishga urg'u berdi. Natijada 60-yillarda O'zbekiston tarixi, o'zbek tili va adabiyoti, chet tillari, musiqa va qo'shiqchilik darslari hajmi keskin qisqardi va ular o'quv rejasida belgilanganidan haftasiga 16,5 soatga kamayib ketdi. Ulardan bo'shagan soatlarda esa rus tili va adabiyoti predmeti o'qitildi. Masalan, o'qituvchilar «XIX asr ikkinchi yarmi XX asr boshlarida o'zbek adabiy-badiiy muhiti», «Milliy madaniy jarayonlar» to'g'risidagi mavzularda dars o'tishi lozim

¹⁶ Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е-90-е гг.: проблемы и тенденции. Т., 1996. С. 20

bo'lgan soatlarda rus madaniyatining «progressiv» ahamiyatini ko'rsatib berishga majbur bo'ldilar. Nihoyatda boy va ko'hna o'zbek xalqi tarixini o'rganishga 52 soat ajratilgan holda boshlang'ich maktablarda rus tili va adabiyoti predmetlari uchun 1600 soat ajratildi¹⁷. Umumta'lim maktablarining faoliyati asosan «rivojlangan sotsializm» g'oyasini o'quvchilarga singdirish, ularni «kommunistik ruhda» tarbiyalashdan iborat bo'ldi. Milliylik esa o'zbek maktablari mazmunidan chiqarila boshlandi. Maktablardagi tarbiya Yevropa tarixi misolida olib borildi. Yevropa madaniyati, tarixi amalda baynalmilallik namunasi sifatida talqin etildi. Natijada, o'zbek o'quvchilarida milliy o'zlikni anglash, urf-odat, milliy an'analarga sodiqlik kayfiyatidan ajralish hollari ro'y bera boshladi. Maktab o'quvchilarining o'quv rejasidagi soatlarini o'zlashtira olmasligi odatiy hol bo'lib qoldi. Bu ularni paxta va boshqa qishloq xo'jalik ishlariga ko'proq jalb qilinishi bilan izohlanadi. O'quv yilining 3-4 oyi ana shunday majburiy tadbirlar bilan band bo'lishga ketar edi. Bu esa o'zbek o'quvchisini jahon standartlaridan ortda qoldirib, zamonaviy fan sohalarini o'zlashtirishga imkon bermasdi. Ikkinchi jahon urushidagi katta yo'qotishlar oliy ma'lumotli xodimlarning son va sifat jihatidan kamayib ketishiga olib keldi¹⁸. 1947 yil 10 iyulda bo'lib o'tgan Beshkent rayon partiya qo'mitasi va rayon ijroiya qo'mitasining qo'shma yig'ilishi o'qituvchi kadrlar yetishmayotganligini hisobga olib, Beshkent rayonidan Samarqand Davlat universitetiga 15 kishi, Buxoro sirtqi institutiga 35 kishi, Qarshi pedagogika bilim yurtiga 84 kishi, Beshkentda ochilgan malaka oshirish kursiga 100 kishi yo'llash to'g'risida qaror qabul qildi. Buni amalga oshirish xalq maorifi bo'limi mudiri Karim Shomurodovga topshirildi¹⁹.

Beshkent rayon xalq maorifi bo'limi 1950-51 o'quv yilini 1 ta o'rta, 19 ta to'liqsiz o'rta, 12 ta boshlang'ich maktab bilan boshladi. Shu o'quv yilida maktablarda 8037 talaba tahsil oldi. Urushdan keyingi 5 yil ichida rayondagi 1-o'rta maktabni 36 o'quvchi tamomladi. Bu rayon miqyosidagi ko'rsatkich edi. 1950 yilda 20 dan ortiq o'quvchi Buxoro, Samarqand, Toshkent va Qarshi shahrida gi o'quv yurtlarida tahsil oldi. Garchand 1941 yil yanvar oyida bo'lib o'tgan rayon Soveti sessiyasida rayon bo'yicha savodsizlikni tugatish muddati 1943 yilning may oyiga qadar deb bel-gilangan bo'lsa-da, hanuz savodsizlik nihoyasiga yetmagan edi. 1950-51 o'quv yilida 25 ta savodsizlar sinfida 443 kishi, 27 ta chala savodlilar sinfida 453 kishi ta'lim olgan. Achinarli ahvolni qarangki, xalq yozuvning tez-tez almashuvi oqibatida savodsizlik botqog'iga shunchalik chuqur uloqtirilganki, 10 yil davomida

¹⁷ Насыров Р. Социальное развитие села Узбекистана (1965-1985) - Т.. 1994. С. 27-28.

¹⁸ Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошк.; . Т.: «Шарк», 2000. - 574 б.

¹⁹ Қашқадарё вилоят Давлат арихивининг Қарши филиали. 31- фонд, 1-руйхат, 135-иш, 27-бет.

ham bu botqoqlikdan chiqa olmagan. 1950 yillar boshiga kelib rayondagi ayrim to'liqsiz o'rta maktablarni o'rta maktabga aylantirish ehtiyoji tug'ildi.

Rayon ijroiya qo'mitasining 1951 yil 18 mart qaroriga ko'ra Mug'lon qishloq Sovetidagi Hamza nomli yetti yillik maktab o'rta maktabga aylantirildi. Endi rayon bo'yicha 2 ta o'rta maktab ishlay boshladi.

Umuman 50-yillarda bir yoqlamalilik mayllaridan qat'iy nazar xalq maorifiga e'tibor va talab kuchli bo'lgan. Deyarli har bir o'quv yili yakuni rayon soveti sessiyalarida muntazam muxokama etib borilgan.²⁰

1954-55 o'quv yilida Pomuq qishloq Sovetidagi Stalin nomli turkman yetti yillik maktabi, Qamashi qishloq Sovetidagi Navoiy nomli yetti yillik maktab o'rta maktabga aylantirildi. Shunday qilib, rayon bo'yicha o'rta maktablar soni 4 taga yetdi. Shu o'quv yilida rayonda 4 ta o'rta maktab, 20 ta yetti yillik, 6 ta boshlang'ich maktab faoliyat ko'rsatdi. Oliy ma'lumot lilar soni orta bordi. Shu davrda 38 o'kituvchi oliy, 138 o'qituvchi to'liqsiz oliy, 229 o'qituvchi o'rta, 15 o'qituvchi o'rtadan past ma'lumotga ega edi.²¹

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR:

1. Абдуллаев Ф. Ўзбекистонда хотин-қизлар таълимининг ривожланиши – Тошкент: Ўзбекистон, 1968.

2. Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; . Т.: «Шарқ», 2000.

3. Рахматова.Д.Ж XX аср 50-80-йилларида Қашқадарё вилоятида амалга оширилган пахта яккаҳокимлиги сиёсати ва унинг оқибатлари. Монография-Т.: "Лессон Пресс" нашриёти, 2023-й.

4. Эгамбердиев Х. Ўзбекистонда тўртинчи ва бешинчи беш йилликлар даврида халқ муорифининг юксалиши (Қашқадарё мисолида) // Ўзбекистонда ижтимоий фанлар, 1972 -№2.

5. Закон "Об укреплении связи школы с жизнью и о дальнейшем развитии системы народного образования в СССР" // <https://www.prilib.ru/history/619837>

6. Хидиров П. Шахрисабз районидаги "Правда 25 йиллиги" колхози тарихи Тошкент ЎзССР колхоз ва совхозлари тарихи жамоатчилик институти, 1979.

7. Эргашев К. Развитие общеобразовательной школы в Узбекистане. 70-е-90-е гг.: проблемы и тенденции. Т., 1996. С. 20

²⁰Эргашев.Е.Бешкент тарихи .Қарши-2000 й Б-115

²¹Эргашев.Е.Бешкент тарихи .Қарши-2000 й Б-116



Насыров Р. Социальное развитие села Узбекистана (1965-1985) - Т.. 1994.

8.Ўзбекистоннинг янги тарихи. К.2. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида.Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С. Камолов ва бошқ.; . Т.: «Шарқ», 2000.